FRANSUZ XALQ TOPISHMOQLARI O'RGANILISHINING TARIXIY VA NAZARIY ASOSLARI

Usmonova Nilufar Suvon qizi *O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi*
Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
usmonovanilufar313@gmail.com

Annotatsiya : Mazkur maqolada fransuz xalq topishmoqlarining kelib chiqish tarixi va ularni o'rganishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida topishmoq janrining shakllanishi, uning og'zaki xalq ijodidagi o'rni hamda ijtimoiy-madaniy funksiyalari yoritiladi. Fransuz va g'arb folklorshunos olimlarining (Sébillot, van Gennep, Archer Taylor) topishmoq haqidagi ilmiy yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, janrning ta'riflanishidagi asosiy konseptual farqlar ochib beriladi. Maqolada topishmoqning tarixiy taraqqiyoti, uning madaniy xotira va mentalitet bilan bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: topishmoq, tarixiy jarayon, folklor, etnografiya, an'ana, tuzilma, shakl, jumboq, madaniyat.

Kirish: Xalq og'zaki ijodi janrlari orasida topishmoq qadimiy tafakkur mahsuli sifatida insonning borliqni anglash usullari, ramziy fikrlashi va madaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim janr hisoblanadi. Biroq fransuz xalq topishmoqlarining kelib chiqish tarixi, ularning janr sifatida shakllanishi hamda nazariy jihatdan talqin etilishi masalalari ilmiy adabiyotlarda turlicha yondashuvlar asosida izohlangan bo'lib, mazkur qarashlar ko'pincha tizimli va umumlashtirilgan holda yoritilmagan.

Mazkur maqolada fransuz xalq topishmoqlarining paydo bo'lish jarayoni, tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda topishmoq janriga berilgan ilmiy ta'riflar muammosi markaziy o'rinni egallaydi. Xususan, fransuz va g'arb folklorshunos olimlarining topishmoq haqidagi nazariy qarashlari tahlil qilinib, ularning janrni talqin etishdagi metodologik farqlari ochib beriladi. Shuningdek, topishmoqning

og‘zaki an’ana doirasidagi funksiyalari, madaniy xotira va ijtimoiy tajriba bilan bog‘liqligi masalalari yoritiladi.

Asosiy qism: *Topishmoq ta’rifi.* Topishmoq - xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, ko’ngilochar va universal janrlaridan biri bo‘lib, u inson tafakkuri, til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Turli xalq madaniy an’analarda mentalitetga munosib ravishda topishmoqning shakli, mohiyati va ulardagi obrazlar tizimi bir-biridan farqlansa-da, uning asosiy vazifasi umumiy ya’ni bilvosita va ramziy tavsif asosida yashirin ob’ekt yoki tushunchani aniqlashdan iboratdir. Shu jihatdan, topishmoq bilish jarayonini faollashtiruvchi, kognitiv va estetik funksiyalarni o’zida mujassam qilgan og‘zaki nutq shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Katta rus ensiklopediyasining 10-tom 2008 yilda chiqqan nashrida topishmoqqa shunday ta’rif beriladi: “O’z shakliga ko’ra xalq topishmoqlari maqollarga yaqindir: bir xil o’lchovli, izchil nutq, qofiya va so’zlarning bir xil tez-tez ishlatilishi bu ikki janrning o’xshash tomonlaridan sanaladi. Maqol va topishmoq farqli jihati shundaki, topishmoqni taxmin qilish kerak, maqol esa saboqdir. Topishmoq yasash va topish, topishmoqlarda bellashish xalq eposi va uning ta’sirida yaratilgan kitobiy adabiyotning juda keng tarqalgan motividir. Ushbu maxsus “savol va javoblar” adabiyoti barcha asrlar va xalqlarning ko’plab asarlarini o’z ichiga oladi.” [Загадка // Большая российская энциклопедия., 2008. — С. 159.]

Ushbu kichik adabiy janr, zamonaviy shaklida, XVII asr salonlarida rivojlanib, 1677-yillarda davriy nashrlarni o‘qiganlar orasida sevimli o‘yinga aylanadi.[Elsa Veret, 2018] Topishmoqlar to‘plamlari va ushbu qisqa she’rlar nashr etilgan davriy nashrlarni tahlil qilish orqali, ma’lum bir mavzuga (soatlar, yasash tarzi, moda, tibbiyot, o‘qish va adabiy hayot, oziq-ovqat va h.k.) oid matnlar korpusini shakllantirish mumkin. Ular o‘nlab yillar davomida mavjud bo‘lib, tasvirlarning evolyutsiyasini kuzatishga imkon beradi. Topishmoqlar kundalik buyumlar va umumiy tushunchalarni ustun qo‘ygani sababli, ular hech qachon individual bo‘lmagan, balki o‘yin shaklli bo’lgani uchun majburiy ravishda

umumiy va maqsadli auditoriya tomonidan baham ko‘rilishni maqsad qiluvchi tasavvurlar dunyosini ochadi.[Timothée Léchot,2018, p2]

Topishmoqlarni ilmiy jihatdan tizimli o‘rganish XX asr ga’rb folklorshunosligida ko’pincha Archer Taylor nomi bilan bog‘liq bo’ladi. U asosan **Amerika va Evropaning folklor an’analari** ustida ishlagan va topishmoq janri bo‘yicha izlanishlar qilgan. Taylorning ishlari topishmoqlar, maqollar va xalq og‘zaki ijodining struktural va tarixiy tahliliga katta hissa qo‘shgan. Ushbu amerikalik olim topishmoqni og‘zaki an’anaga mansub, bir yoki bir nechta tavsifiy unsurlar asosida qurilgan va javobni topishni talab qiluvchi nutq birligi sifatida ta’riflaydi [Taylor, 1951, 2–3-b]. Olimning fikriga ko‘ra, topishmoq savol va javob o‘rtasidagi mantiqiy va semantik nomuvofiqlik orqali tinglovchini faol tafakkur jarayoniga chorlaydi.

Topishmoqning ichki tuzilishini aniqlashda uning tuzilishi jihatidan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda uning lingvomadaniy xususiyatlari ham aks etadi. Amerikalik folklorshunoslar Robert A. Georges va Alan Dundes topishmoqni asosan savol va javob o‘rtasidagi semantik qarama-qarshilikka asoslangan mustaqil folklor birligi sifatida talqin qiladilar [Georges & Dundes, 1963, 113–114-b]. Ular o’zlarining “Toward a Structural Definition of the Riddle” nomli maqolasida *jumboq/topishmoq* janrini struktur analiz orqali aniqlash, tahlil qilishga uringan. Ushbu olimlar jumboq ya’ni topishmoqlarni **bir yoki bir nechta “descriptive element” ga asoslangan an’anaviy og‘zaki ifoda sifati**da belgilashga harakat qilganlar.Ushbu yondashuv topishmoqni faqat mazmuniy emas, balki struktur jihatdan ham aniqlash imkonini berib, uni boshqa og‘zaki janrlardan farqlovchi asosiy belgilarni belgilaydi.

Ingliz olimi Aristotening fikriga ko‘ra, topishmoq bizga imkonsiz narsa bilan bog‘liq bo‘lgan haqiqat haqida gapiradigan yaxshi tuzilgan metaforadir. [Aristote, 1954, 20b] Topishmoq taxmin qilinadigan narsa yoki hodisaning qisqa, yaxshi qofiyalangan tavsifidan iborat. Unda savol va javob bor. Aslida savol javobni o‘z ichiga oladi, biroq bilvosita, yashirin tarzda. Savol taxmin qilinadigan ob’ektning sifatlarini o‘z ichiga oladi, ularni taqqoslash va o‘xshashliklar orqali

taxmin qilish kerak. Shunday qilib, topishmoq - metafora, allegoriya, son nomlari va boshqa shakllar bilan taqdim etiladi. [Aristote, 1954, 20b]

Topishmoq janri fransuz tilida turli atamalar orqali ifodalanadi: **devinette**, **énigme**, **charade**. Ushbu terminlar xalq og‘zaki ijodi doirasida shakllangan bo‘lib, XIX asr oxirlaridayoq ularning janr sifatidagi o‘rni *Littérature orale* (Paris, 1893) kabi tadqiqotlarda qayd etilgan. Mazkur nomlanishlarning har biri topishmoqning ma’lum bir funksional yoki struktur jihatini aks ettiradi: *devinette* — topishga undovchi savol shaklini, *énigme* — yashirinlik va mantiqiy murakkablikni, *charade* esa so‘z va bo‘g‘inlar asosidagi o‘yin elementini ta’kidlaydi. Shuningdek, topishmoqning **“so‘z obrazining kaliti”** sifatida baholanishi uning poetik tabiatini yanada chuqurroq ochadi. Bu fikrga ko‘ra, topishmoq real predmetni bevosita nomlamasdan, uni ramziy, metaforik va ko‘chma ifodalar orqali tasvirlaydi; natijada so‘z oddiy nominativ birlikdan chiqib, **semantik sir va badiiy ishora vositasiga** aylanadi. Aynan shu xususiyat topishmoqni nafaqat folklor janri, balki **lingvopoetik va lingvomadaniy tadqiqotlar** uchun muhim obyektga aylantiradi.

Fransuz folklorshunosligida ham topishmoqlarni tizimli o‘rganish XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadallashdi. Fransuz tilshunosligi va folklorshunosligida topishmoq *énigme* va *devinette* atamalari orqali ifodalanadi. CNRTL lug‘atida [Ressource électronique] *devinette* “bilvosita tavsif yordamida biror narsa, mavjudot yoki tushunchani topishni talab qiluvchi til o‘yini” sifatida ta’riflanadi. Ushbu ta’rif topishmoqning o‘yin xarakteri bilan bir qatorda, uning bilish va tafakkurni sinovdan o‘tkazuvchi vazifasini ham ochib beradi.

Fransiyaning eng mashhur folklorshunos va etnograf olimi Paul Sébillot XIX asr oxiri va XX asr boshida ijod qilgan va fransuz xalq og’zaki ijodining turli janrlarini, jumladan topishmoqlarini to’plagan va tadqiq qilgan. 1904–1906-yillar davomida yozilgan “Le Folklore de France” asarida Sébillot fransuz xalq topishmoqlari, maqollari, afsonalari va boshqa xalq og’zaki ijodi haqida batafsil ma’lumot bergan. U xalq topishmoqlarining madaniy va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilib, ularni turli mintaqalar va davrlar bo’yicha to’plagan.

Fransuz folklorshunosligida topishmoqqa bevosita bag‘ishlangan nazariy ta’riflar kam uchrasa-da, Paul Sébillotning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sébillot topishmoqlarni kundalik hayot, tabiat, mehnat jarayonlari va urf-odatlar bilan chambarchas bog‘liq hodisa sifatida ko‘rsatadi. Uning yondashuvida topishmoq xalqning mehnat tajribasini ifodalovchi madaniy birlik sifatida talqin qilinadi.

U « *Le Folk-Lore de la France* » asarida suv, quduq, buloq kabi tabiiy obyektlar bilan bog‘liq e’tiqodlar, marosimlar va og‘zaki matnlarni batafsil tasvirlaydi [Sébillot, p. 243; p. 290]. Sébillot bu materiallarni mustaqil topishmoq janri sifatida emas, balki *croyances*, *facéties* va *contes* doirasida ko‘rib chiqadi. Biroq mazkur matnlarda uchraydigan savol-javobga moyil tuzilmalar, ramziy yashirinlik va bilishni sinovdan o‘tkazuvchi unsurlar ularni funksional jihatdan topishmoqlarga yaqinlashtiradi. Shu bois, Sébillot tomonidan jamlab o’rganilgan ayrim og‘zaki shakllarni topishmoqning proto-shakllari (topishmoq janrining eng qadimiy ilk va rivojlanish bosqichidagi shakllari) sifatida talqin qilish mumkin. Paul Sébillot qarashlariga ko‘ra, fransuz folkloridagi topishmoqlar alohida janr emas, balki **mif, e’tiqod, rivoyat va marosimlar bilan uzviy bog‘liq lingvomadaniy hodisa** hisoblanadi.

Shunday qilib, topishmoqni o‘rganishda Sébillot tomonidan yaratilgan empirik-madaniy asos, Georges va Dundesning struktur tahlili hamda Greimasning semiotik yondashuvi o‘zaro mantiqiy metodologik davomiylikni hosil qiladi. Ushbu yondashuvlar majmui fransuz va o‘zbek topishmoqlarini lingvomadaniy nuqtai nazardan qiyosiy tadqiq etish uchun mustahkam nazariy poydevor yaratadi.

Fransuz olimlari ham xalq og’zaki ijodini, jumladan topishmoqlarni o’rganish jarayonida metafora va istioraning qo’llanilishi yuzasidan chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular xalq madaniyati, mifologiya va lingvistikani tahlil qilish orqali badiiy tasvirlar va ramzlarning til va madaniyatdagi o’rnini o’rganishgan.

Topishmoq janrining Georges va Dundes tomonidan taklif etilgan ta’rifi fransuz strukturalizmi vakillari – Claude Lévi-Strauss va Algirdas Julien Greimas

nazariyalari bilan metodologik jihatdan uyg‘unlik kasb etadi. Xususan, Lévi-Strauss mifologik tafakkurni binar oppozitsiya (ya’ni ikki qarama-qarshi tushuncha yoki kategoriya)lar tizimi asosida tahlil qilgan. 1908–2009 yillarda yashab ijod qilgan fransuz antropologi va strukturalisti Claude Lévi-Strauss xalq madaniyati, jumladan xalq og’zaki ijodidagi ramzlar, metafora va istioralarni o’rganishga katta e’tibor qaratgan. U topishmoqlardagi badiiy ifodalarni inson tafakkuri va madaniy o’zgarishlar bilan bog’lagan. Ya’ni u xalqog’zaki ijodi janrlariga oid barcha voqealarda xususan topishmoqlarda tasvirlovchi elementlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar markaziy o‘rin tutadi, tartibga solinadi.

Yana bir mashhur fransuz etnografi va folklorshunosi Arnold van Gennep xalq rituallari va og’zaki ijodini,turli xalqlar folkloridagi ramzlar va rituallarni o’rganib, topishmoqlarning ijtimoiy va diniy funksiyalarini tahlil qilgan. 1937-yilda yozilgan “Manuel de folklore français contemporain” asarida fransuz folklorining turli shakllarini, shu jumladan topishmoqlarni, afsonalarni va rituallarni jamlagan. Bu asar xalq ijodining turli ko’rinishlari, ularning ijtimoiy ahamiyati va tarixiy rivojlanishiga bag’ishlangan.

Fransuz folklorshunosligida muhim o‘rin tutgan ushbu olim folklor janrlarini marosimlar, urf-odatlar va ijtimoiy hayot bilan uzviy aloqada tahlil qiladi. Van Gennep nazariyasiga ko‘ra, xalq og‘zaki ijodining ko‘plab janrlari singari topishmoqlar ham muayyan ijtimoiy vaziyatda, aniq kommunikativ ehtiyoj asosida vujudga kelgan. Ushbu yondashuv topishmoqni faqat matn sifatida emas, balki madaniy-amaliy hodisa sifatida tushunishga imkon beradi.[**Van Gennep, A.**,1927.]

Fransuz olimi Lévi-Strauss fikriga ko‘ra, mif va unga yaqin og‘zaki janrlar inson tafakkurining mantiqiy modelini aks ettiradi. Ushbu yondashuv topishmoqlardagi yashirin referent va paradoksal tasvirlar orqali inson bilish jarayonining ramziy ifodasi sifatida talqin qilinishi mumkin.[Claude Lévi-Strauss, *Anthropologie structurale* ,**1958]**

Shu tariqa, Georges va Dundes tomonidan ishlab chiqilgan struktural yondashuv Lévi-Strauss va Greimas nazariyalari bilan uyg‘unlashib, topishmoq

janrini lingvokulturologik va semiotik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Algirdas Julien Greimas fransuz semiotik maktabining yetakchi namoyandasi sifatida topishmoqlarning yashirin ma’no tizimini ochib berishda muhim nazariy vositalarni ishlab chiqqan. Uning « *Du sens I* » asarida ishlab chiqilgan semantik kvadrat modeli (ya’ni tushunchalar , ularning qarama-qarshi ma’nosi inkor shakllarini ko’rsatadigan tizim) topishmoqlardagi qarama-qarshiliklar, yashirin va oshkor ma’nolarni tahlil qilishda samarali metod hisoblanadi. Greimas topishmoqni belgilar tizimi sifatida ko‘rib, undagi har bir obraz va metaforaning funksional rolini aniqlashga harakat qiladi. [Qayta nashr. Greimas, 2011, 28–33-b]

Topishmoqning semantik va ramziy tabiatini chuqurroq tahlil qilishda Algirdas Julien Greimasning semiotik nazariyasi metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Greimas nazariyasiga ko‘ra, qisqa va yashirin ma’noga ega matnlar semalar tizimi asosida quriladi va ularni anglash jarayoni mazkur semalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash orqali amalga oshiriladi (Greimas, 1966, 27–29-b). Bu yondashuv topishmoqni ramziy-semiotik tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Fransuz va g‘arb tilshunosligida topishmoq hamda so‘z o‘yinlarini o‘rganish masalasi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida til falsafasi, semiotika va ritorika doirasida izchil rivojlangan. Jumladan, fransuz tilshunosi Jean-Jacques Lecercle til o‘yinlari nazariyasi doirasida so‘z o‘yinlari, metafora va noaniq ma’no hosil bo‘lish jarayonlarini tahlil qiladi. Uning tadqiqotlarida til o‘yini nutqiy muloqotning alohida shakli sifatida qaralib, unda yashirin ma’nolar va ko‘p qatlamli semantik strukturalar shakllanishi ta’kidlanadi.[Lecercle J.-J.,1990.] Ushbu yondashuv topishmoqlarni metaforik va semantik o‘yin sifatida tushuntirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Semiotik yondashuv doirasida Denis Bertrand tadqiqotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ishlarida jumboq (énigme) va metafora o‘rtasidagi aloqadorlik tahlil qilinib, bu ikki shakl yashirish va ochish mexanizmlariga

asoslangan ma’no hosil qilish jarayoni sifatida talqin qilinadi [Bertrand D., 2010]. Bertrand qarashlariga ko‘ra, jumboq va metafora semantik o‘yin shakli bo‘lib, u o‘quvchi yoki tinglovchini faol talqin jarayoniga jalb etadi. Bu holat topishmoqlarni lingvosemiotik hodisa sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Ritorik yondashuv nuqtayi nazaridan Alain Boissinot allegoriya masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Uning ritorika va allegoriyaga bag‘ishlangan tadqiqotlarida allegoriya ko‘p qatlamli ma’no yaratish vositasi sifatida talqin qilinadi [Boissinot A., 1990].Bu yondashuv allegorik topishmoqlarning mazmuniy murakkabligini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Topishmoq shakl va hajm jihatidan maqolaga o‘xshashligi sababli, bu ikki janrning paydo bo‘lish davri ham bir xil bo‘lishi mumkinligi taxmin qilinadi. [Roulon-Doko, 2004]

Hélène Bouget — fransuz tilshunosligi va o‘rta asr adabiyotshunosligi bo‘yicha taniqli olim bo‘lib, o‘rta asr fransuz romani va topishmoq janrlarini chuqur o‘rgangan.[Bouget H.,2020] Uning «*Enquerre et deviner : poétique de l’énigme dans les romans arthuriens français (fin du XII^{e}-premier tiers du XIII^{e} siècle)*» monografiyasi 2007-yilda Rennes II universitetida doktorlik dissertatsiyasi sifatida himoyalangan va 2011-yilda Honoré Champion nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Ushbu ish o‘rta asr fransuz adabiyotidagi “énigme” va “devinette” tushunchalarini matn kontekstida tahlil qiladi, ularni semantik va poetik jihatdan farqlaydi. [Bouget H.,2011] Bougetning tadqiqoti **matnli tahlil va struktural yondashuvga** asoslangan bo‘lib, égnime (ya’ni murakkab, metaforik, interpretatsiyaga muhtoj topishmoq) va devinette (ya’ni qisqa, aniq javobli savol-javob shaklidagi, bilim va tafakkurni sinashga xizmat qiladigan topishmoq) tushunchalarini aniqlaydi. [Bouget Hélène.,2013] Shu bilan birga, u o‘rta asr matnlarida topishmoqlarning o‘quvchi va qahramon tafakkurini faollashtirish, narrativni rivojlantirish va semantik chuqurlik berishdagi rolini ko‘rsatadi.

Asar **akademik jurnallar va tadqiqot sharhlari orqali tanqidiy baholangan** va uning yondashuvi fransuz tilshunoslari orasida keng qabul qilingan. [Bouget Hélène.,2013] Shu bilan birga Hélène Bougetning ishlari o‘rta

asr adabiyotshunosligi va folklor tadqiqotlarida yuzasidan qilingan **ilmiy asosli va ishonchli manba** sifatida e'tirof etiladi.

Fransuz tadqiqotchisi Timothée Léchot o'zining tadqiqot ishi bilan bog'liq "L'énigme, une clef d'interprétation de l'architecture ?" deb nomlangan maqolasida dastlabki topishmoq janri haqida quyidagi qimmatli fikrlarni aytib o'tgan: "Ushbu kichik adabiy janr zamonaviy shaklida XVII asrda rivojlanib, taxminan 1677-yillarga kelib davriy nashrlar o'quvchilari orasida eng sevimli adabiy o'yinlardan biriga aylanadi. Bu qiziqish Inqilob davrigacha deyarli so'nmay davom etadi. Ushbu amaliyotni yoqlab yoki tanqid qilib izohlagan Eski tartib (Ancien Régime) davri adiblari topishmoq bilan "katta" adabiy janrlar o'rtasidagi masofani deyarli har doim alohida ta'kidlab o'tadilar.

Bu turdagi topishmoqlar adabiy manzarada ikkinchi darajali o'rin egallaydi va XVII asrda ularni nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan jiddiy sa'y-harakatlarga qaramay, shakliy tomondan aniq belgilangan chegaralarga ega emas. Ularning hajmi va ohangi turlicha bo'lib, ko'pincha noodatiy vaznlar yoki erkin heterometriyadan foydalaniladi. [Timothée Léchot, 2018, p. 81-98].Avvalo, XVIII asrda topishmoqlar asosan me'moriy jihatdan tashkil etilgan makonlar — xususiy yoki jamoat joylari — yoki muayyan inshootlar haqida yaratilgan edi. O'ziga xos usulda, ya'ni noaniq tavsiflar va ikki ma'noli ishoralar orqali bir so'zni topishga undash yo'li bilan, topishmoq hanuz yetarlicha o'rganilmagan me'moriy tasavvurlar olamini yuzaga chiqaradi.

Xulosa. Ushbu maqolada topishmoq janrining ilmiy ta'rifi, metodologik asoslari va tarixiy rivojlanish bosqichlari batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, topishmoq — nafaqat xalq og'zaki ijodining o'ziga xos shakli, balki matn ichidagi **semantik va poetik mexanizmlarni faollashtiruvchi o'yin va sinovga asoslangan vosita** sifatida muhim rol o'ynaydi.

G'arb adabiyotshunosligida Lévi-Straussning **binar oppositsiyasi** va Greimasning **semantik kvadrati** nazariyalari topishmoqlarning « égnime » va « devinette » shakllari orqali **qarama-qarshi va qo'shimcha semantik funksiyalarni** bajarishini aniqlashda qo'llanildi. Ushu yondashuv

topishmoqlarning qahramon va o‘quvchi tafakkurini faollashtirish, matnga interpretativ va interaktiv xarakter berishini ko‘rsatadi.Fransuz o‘rta asr matnlarida esa topishmoq janri XII–XIII asrlarda Arthuriy romanlari kontekstida shakllangan bo‘lib, égnime va devinette qahramonlarni tahlil qilishga va matnni o‘rganishga chorlovchi vosita sifatida ishlatilgan. Bu janr o‘rta asr fransuz adabiyotida o’zining **folklor, didaktik va poetik qirralarni** uyg‘unlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati :

2. Boissinot A. *Travaux sur la rhétorique et l’allégorie*. — Paris, années 1990.

4. Bouget H. *Curriculum Vitae et parcours académique*. Rennes II Université, 2020.

5. Bouget H. *Enquerre et deviner : poétique de l’énigme dans les romans arthuriens français (fin du XII^e-premier tiers du XIII^e siècle)*. Paris: Honoré Champion, 2011.

6. Delphine Denis, « Pour une approche sérielle de l’énigme au XVIIe siècle », in Luc Fraisse (dir.), *Séries et variations. Études littéraires offertes à Sylvain Menant*, Paris, Presses de l’Université de Paris-Sorbonne, 2010, p. 109-122.

7. Georges R.A., Dundes A. *Toward a Structural Definition of the Riddle* // Journal of American Folklore. — 1963. — Vol. 76, № 300. — P. 111–118.

8. Greimas A.J. *Sémantique structurale*. — Paris : Larousse, 1966. — P. 27–29.

9. Journals OpenEdition. Bouget Hélène, *Enquerre et deviner – recension critique* // *Pôle Médiéval*, 2013. URL: https://journals.openedition.org/peme/18365

10. Lévi-Strauss C. *Anthropologie structurale*. — Paris : Plon, 1958.

11. Lévi-Strauss C. *Structural Anthropology*. New York: Basic Books, 1963.

12. Lecercle J.-J. *Travaux sur la philosophie du langage et les jeux de langage*. — Paris, années 1990.

13. Roulon-Doko P. *Les devinettes en pays Gbaya*. — Paris : Llacan, 2004.

14. Sébillot P. *Le Folk-lore de France. Tome I : La littérature orale*. — Paris : Guilmoto, 1904. — 456 p.

16. Timothée Léchot, « La poésie ludique et les règles de la transgression », in Michèle Crogiez Labarthe (dir.), *La Règle du jeu*, *Versants. Revue suisse des littératures romanes*, t. 65/1, 2018, p. 81-98 :

17. Van Gennep A. *Textes inédits sur le folklore français contemporain*. — Paris, 1927. 18. Загадка // Большая российская энциклопедия. Том 10. — М., 2008. — С. 159.]